



DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI TEXNOLOGIYALARI ZAMONAVIY SIYOSATSHUNOSLIKNING TATQIQOT OBYEKTI SIFATIDA

Mardanov Sardorbek Zafar o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Ijtimoiy Fanlar fakulteti Siyosatshunoslik yo'nalishi
Siyosat-22/A1 guruhi 4-kurs talabasi
E-pochta: davronovz73@gmail.com
ORID ID: 0009-0001-5305-5860
O'zbekiston Respublikasi. Toshkent sh.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19651184>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 11-aprel 2026 yil
Ma'qullandi: 13-aprel 2026 yil
Nashr qilindi: 15-aprel 2026 yil

KEY WORDS

Davlat boshqaruvi, davlat siyosati, davlat boshqaruvi texnologiyalari, siyosiy jarayon, siyosiy hokimiyat, siyosiy texnologiya, siyosiy tahlil, davlat xizmati, siyosatshunoslik.

ABSTRACT

Mazkur maqolada davlat siyosati va boshqaruv texnologiyalari zamonaviy siyosatshunoslikning obyekt sifatida nazariy va konseptual ma'lumotlar orqali bayon etiladi. Ushbu maqolada zamonaviy davlat boshqaruv usullari, konsepsiyalari hamda bu sohaga oid ilmiy tatqiqot ishlar ham keltirilib o'tiladi. Siyosatshunoslik va davlat boshqaruvining integratsiyaviy munosabatlari o'rganiladi. Bu boradigi ilmiy yangiliklar tahlil qilinadi.

Zamonaviy siyosatshunoslik sohasining tatqiqot obyekt siyosiy jarayon va hodisalar hisoblanadi¹. Boshqa ilmiy adabiyotlarda esa, jamiyatning siyosiy tizimi, siyosiy institutlar va ijtimoiy guruhlar keltiriladi². Biroq mazkur siyosiy jarayon va hodisalarning mexanizmlari davlat boshqaruvi va davlat siyosati texnologiyalari asosida ta'minlanadi. Global siyosiy jarayonlar, davlat boshqaruvi sohasining raqamlashuvi, davlat siyosatida strategik rejalashtirish va siyosiy hokimiyat mexanizmlarida davlat boshqaruvining legitimini ta'minlash uchun mazkur sohani tatqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu soha tatqiqotining rivojlanishi jahon amaliyotida davlat boshqaruvining yangi trendlarini, zamonaviy boshqaruv usullarini, modellarini va yangi paradigmalarning yaratilishiga asos bo'lmoqda. Natijada davlat siyosatida demokratik jarayonlar samaradorligining oshishiga, jamiyat va davlat munosabatlarida muvozanatning ta'minlanishiga hamda natijadorlik, ochiqlik, shaffoflik, tenglik, ijtimoiy adolat va fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi faol ishtirokining ortib borishiga xizmat qiladi. Davlat boshqaruvi tizimida mavjud kamchiliklar va to'siqlarning oqilona usullar va tajribalar asosida bartaraf etilishi va bu borada milliy tajribaning shakllanishi tatqiqotning maqsadidir. Mazkur tatqiqot ishida quyidagi definitsiyalarning mazmuni va mohiyati quyidagicha ifodalanadi:

¹ Bo'tayev.U.X. Siyostshunoslik [Matn]:darslik/U.X.Bo'tayev-Toshkent: Info Capital Books, 2024.- 14-b.

² Aliyev.B, Hoshimov.T, Yuldashev.O, Politologiya: darslik – B.Aliyev (va boshqalar), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. – T: Adib nashriyoti, 2010. – 8-b.

Davlat boshqaruvi tizimi – boshqaruv borasida mavjud vazifalar bajarilishi uchun ilmiy asosga ega bo'lgan amaliyot zarur bo'lib, davlat boshqaruvi nazariyasini rivojlantirish hamda bu boradagi ilmiy tatqiqotlar natijalarini doimiy ravishda tizimlashtirib borish talab qilinadi³gan jarayondir.

Boshqaruv texnologiyalari – muayyan maqsadga yo'naltirilgan vazifalarni samarali va oqilona amalga oshirish jarayonlari mexanizmi bo'lib, o'zida davlat siyosatining ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy sohasida jamiyatning talab-ehtiyojlaridan kelib tushgan takliflar va qo'llab-quvvatlovlar asosida shakllanadigan davlat boshqaruv tizimiga xizmat qiluvchi maqsadli jarayondir⁴.

Adabiyotlar tahlili.

Siyosatshunoslik fan sohasi sifatida o'zining keng evolyutsion davriylik dinamikasiga ega bo'lganligi bois, ushbu sohani tatqiq etish darajasi "Axborot davrida" murakkab va rivojlanuvchan xarakterga egadir. Mazkur ilmiy jarayon O'zbekistonda bir qator siyosatshunoslik o'quv qo'llanmalari va darsliklarida ham alohida ko'rsatib o'tilgan hisoblanadi. Jumladan, B.Aliyev, A.Qodirov, G.Rafiqov, E.Mo'minov, T.Xoshimov, T.Sultonov, A.Boboyev, A.Sodiqov, D.Vohidov, B.Rahmonov, M.Mullajonova va R.Xallimmetovalarning "Politologiya" o'quv qo'llanmasida siyosiy institutlar va siyosiy jarayonlar bo'limida mazkur siyosiy tizim ko'rinishida tatqiq etilgan⁵. F.Muhitdinovanning "Siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixi" nomli darsligida siyosatshunoslik fanining tarixiy bosqichdagi ta'limotlari bilan birgalikda turli nazariyalar va qarashlarida ifodalaydi⁶. X.T.Odilqoriyev, D.X.Razzoqovlarning "Siyosatshunoslik" darsligida mazkur soha borasida nazariy va konseptual ma'lumotlar beriladi⁷. Q.Q.Quranboyev, K.M.Mirzaaxmedovlarning "Siyosatshunoslik" nomli o'quv qo'llanmasida siyosatshunoslik fan sohasining genezisidan tortib uning O'zbekistonda davlat boshqaruvi hokimiyatlarining faoliyati va jarayonlarini tahliliy ma'lumotlar bilan ko'rsatib o'tishadi⁸. O'.B.Bito'rayev ham "Siyosatshunoslik kirish" nomli o'quv qo'llanmasida bu borada umumiy ma'lumotlarni berib o'tgan hisoblanadi⁹. M.Qirg'izboyevning "Siyosatshunoslik" nomli kitobida siyosatshunoslik sohasining fundamental nazariy asoslarini tatqiq etadi¹⁰. I.Ergashev, B.Abdullayev, A.Xudaynazarovlarning "Siyosatshunoslikka kirish" nomli o'quv qo'llanmasida siyosat nazariyasi va metodologiyasi, siyosiy nazariyalar, jamiyatning siyosiy sohasi tahlil qilinadi¹¹. Davlat siyosati va boshqaruv texnologiyalari sohasida esa, K.M.Mirzaaxmedovning "Davlat boshqaruvi" o'quv qo'llanmasida davlat boshqaruvini tatqiq etishning nazariy manbalari, metodologik asoslari, davlat boshqaruvining tashkiliy tuzilmasi, davlat boshqaruvi

³ Mirzaaxmedov K. Davlat boshqaruvi tizimini demokratlashtirishda siyosiy hokimiyat legitimligini takomillashtirish mexanizmlari. // Monografiya, - T: "Ma'rifat", 2023. 192 b.

⁴ Mardanov S.Z. Davlat boshqaruvining konseptual asoslari va uning davlat siyosatida tutgan roli. // Yangi O'zbekiston Pedagoglari axborotnomasi. № 11, 2025. – 109-b. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17812068>

⁵ Jo'rayev.S. Politologiya: o'quv qo'llanma. – T: TDYI nashriyoti, 2006 45-b.

⁶ Muhitdinova.F.A. Siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixi. Darslik. – T.: TDYI nashriyoti, 2011. – 376 b.

⁷ Odilqoriyev X.T, Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik: darslik. – T: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012-289 b.

⁸ Quranboyev.Q.Q, Mirzaaxmedov.K.M. Siyosatshunoslik: o'quv qo'llanma/ Q.Q.Quranboyev, K.M.Mirzaaxmedov; mas'ul moharrir A.Mo'minov. – T: "Kamalak", 2013.- 276 b.

⁹ Bito'rayev O'. B. Siyosatshunoslikka kirish (o'quv qo'llanma) Toshkent: "Barkamol fayz media", 2017, 344 b.

¹⁰ Qirg'izboyev M. Siyosatshunoslik: oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik / M.Qirg'izboyev; O'zbekiston Jurnalistika va Ommaviy kommunikatsiyalar universiteti. – Toshkent: "Sharq", 2024 – 504 b.

¹¹ Ergashev.I, Abdullayev.B, Xudaynazarov.A, Siyosatshunoslikka kirish: o'quv qo'llanma. – T.: "Ma'rifat", 2025. 332 b.

organlarining shakllanishi, davlat boshqaruvi sohasiga oid jarayonlar hamda O'zbekiston davlat boshqaruvining rivojlanish dinamikasi haqida nazariy va amaliy ma'lumotlar keltiriladi¹². R.Jumayev, Sh.Yovqochevlarning "Siyosiy texnologiyalar" nomli o'quv qo'llanmasida bir qator siyosiy texnologiyalar: siyosiy kommunikatsiya, axborot texnologiyalari, saylov texnologiyalari, PR texnologiyalari, siyosiy tahlil, siyosiy maslahat, siyosiy qaror qabul qilish hamda siyosiy konfliktlarni boshqarish va nazorat qilish texnologiyalari haqida metodologik ma'lumotlar berib o'tiladi¹³. I.N.Islomov, Sh.A.Maxmudov, A.A.Teshaboyevlarning "Global siyosiy texnologiyalar" monografiyasida siyosiy jarayonlarda siyosiy texnologiyalarning qo'llanilishi va bu borada global amaliyotning shakllanganligi, raqamlashuv, turli siyosiy ziddiyotlar va to'qnashuvlarda siyosiy texnologiyalardan samarali foydalanish hamda uning natijalari haqida nazariy-konseptual ma'lumotlar keltiriladi¹⁴. Markur soha borasida yana boshqa ko'plab ilmiy tatqiqot ishlari mavjud.

Metodologiya va tatqiqot usuli.

Mazkur ilmiy maqolada davlat siyosati va boshqaruv texnologiyalarini zamonaviy siyosatshunoslikning obyekt sifatida qiyosiy tahlil qilish metodidan foydalaniladi. Biroq ayrim ilmiy-nazariy axborotlarning mavjudligi bois, tarixiy (analogik), tizimli va struktur-funksional usullar ham qo'llaniladi. Bundan tashqari kontent tahlil, qiyosiy tahlil usullaridan ham foydalanilgan. Jahon amaliyotida davlat siyosati va boshqaruv texnologiyalari borasida bir qator boshqaruv usullari qo'llanilib kelinmoqda:

I. Outsorsing (Outsourcing) usuli – Bu davlat organlarining muayyan funksiyalari va vazifalarini shartnoma asosida muayyan davlat organi yoki nodavlat notijorat tashkilotlariga topshirish usulidir¹⁵.

II. Auditing usuli – Davlat organlari faoliyatida amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini, moliyaviy-byudjet xarajatlarini ochiqlik, hisobdorlik, shaffoflik asosida baholash va monitoring qilish uchun jamoatchilik tashkilotlariga vakolatlarini berish usuli¹⁶.

III. Autstaffing (Outstaffing) usuli – Davlat organlari kadrlar bilan ta'minlash vakolatini xususiy sektorga topshiradi. Bu vositachi tashkilot davlat organlarini kadrlar bilan ta'minlashda strategik HR imkoniyatiga ega bo'ladi¹⁷.

IV. Benchfuyiching (Future Benchmarking, Benchfuturing) usuli – 5-10 yilga muvaffaqiyatli kelajakni modellashtirishdir. (Kelajakdagi muvaffaqiyatli natija qiyofasini yaratish)¹⁸.

V. Benchmarking (Benchmarking) usuli – Boshqa davlatlarning, birinchi o'rinda eng asosiy raqobatchilarining faoliyatini o'z ishida ularning ijobiy tajribasidan foydalanish

¹² Mirzaaxmedov K. Davlat boshqaruvi / O'quv qo'llanma. Toshkent, "Zilol buloq" nashriyoti, 2025. – 384 b.

¹³ Jumayev R, Yovqochev Sh. Siyosiy texnologiyalar: o'quv qo'llanma. – TDSHI, 2018. – 232 b.

¹⁴ Islomov I.N, Mahmudov SH.A, Teshaboyev A.A. Global siyosiy texnologiyalar. Monografiya. – T: Complex Print, 2023. – 123 b.

¹⁵ Outsourcing in the Public Sector: a VfM perspective. // <https://www.nerinstitute.net/research/outsourcing-public-sector-vfm-perspective>

¹⁶ The Role of Auditing in Public Sector Governance. // https://www.ca-ulg.org/sites/main/files/file-attachments/auditing_in_public_sector.pdf?1441835528

¹⁷ What is outstaffing and the main features. <https://blagoda.ua/en/blog/article/47>

¹⁸ Давыдов К.В. Публичные услуги: теоретические проблемы правового оформления / К.В. Давыдов // Качество жизни населения в России и ее регионах: коллективная монография / под ред. В. Куценко, Г.П. Литвинцевой, Л.А. Осьюк. – Новосибирск, 2009. – С. 106.

maqsadida o'rganish usulidan iboratdir. Erkin tajribada "taqqoslash uchun qolip" ma'nosini anglatadi.

VI. Benchreysing (Bench raising) usuli – Benchfyuchingli maqsadlarga erishish yo'lidir. Bu tashkilotning kuchli tomonlarini yoki raqobatdoshli afzalliklarini o'stirishga ahamiyat qaratishdir.

VII. Brending usuli – Davlat yoki mintaqaning ayrim maskanni farqlashga imkon beruvchi hamda unga ijtimoiy va tijorat qiymati baxsh etuvchi ko'zga ko'rinadigan mazmundor va qadriyatli xususiyatlar majmuidir¹⁹.

VIII. Brainstorming (Brainstorming) usuli – davlat boshqaruvida muayyan muammolarni tashkilot doirasida guruh bo'lib, yakka holdagi savol-javob tizimiga asoslangan, berilgan savolni o'ylamasdan yoki filtrlamasdan javob berish orqali kutilyotgan risklarni baholash usuli²⁰.

IX. Benchlering (Bench learning) usuli – Tashkilotning muvafaqqiyotiga aynan nima imkon berishi va yanada muvafaqqiyatli ishlashga rag'batlantirishning tushunish ustida ishlashidir²¹.

X. Kaoching (Coaching) usuli – Davlat boshqaruvida siyosiy yetakchilar, rahbar kadrlarning kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan usullar majmui²².

XI. Fakt cheking (Fact-checking) usuli – Davlat boshqaruvida faoliyatida axborotlarni qayta tekshirish orqali faoliyat shaffofligini, ochiqligini va samaradorligini monitoring ma'lumotlari asosida baholash usuli²³.

XII. Franshizing (Franchising) usuli – Davlat organlarining ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda xususiy sektorlarga muayyan davr va shartlar asosida xizmatlarni yo'naltiradigan shartnoma modeli usuli²⁴.

XIII. Fandrayzing (Fundraising) usuli – Davlat boshqaruvi tizimidagi pul mablag'lari hamda tashkilot va aholining boshqa resurslarini notijorat ehtiyojlarga, xususan, hududlardagi davlat dasturini bajarish uchun izlash va jalb qilish jarayonidir²⁵.

XIV. Hedhanting (Headhunting) usuli – Davlat boshqaruvida xodimlarni yo'llashning eng samarali usuli bo'lib, bunda davlat boshqaruviga proaktiv shaklda malaka kompetensiyasi va bilimi yuqori bo'lgan nomzodlarni jalb qilish usulidir²⁶.

XV. Hedjing (Hedging) usuli – Xalqaro munosabatlarda davlat boshqaruvining kuchlar muvozanatiga intilishi oqibatida tashqi siyosatda diversifikatsion munosabatlarni

¹⁹ Mirzaaxmedov K.M. Davlat xizmati tizimini samarali tashkil etishning zamonaviy modellari. // Ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. №2. 2022. 11-12-b.

²⁰ What is brainstorming and how to apply it in your strategies? // <https://www.imd.org/blog/strategy/what-is-brainstorming/>

²¹ Домбровская И.А. Проблемы внедрения инновационных управленческих технологий в системе государственного и муниципального управления // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – 2014. – № 11-2. – С. 232-236

²² Coaching and Leadership in the Public Sector. // <https://www.westminsterinsight.com/insights/coaching-and-leadership-in-the-public-sector/>

²³ Cooperating with fact-checkers, civil society, media and academia. // https://commission.europa.eu/topics/countering-information-manipulation/cooperating-fact-checkers-civil-society-media-and-academia_en

²⁴ Public Franchising. // https://link.springer.com/rwe/10.1007/978-1-349-74173-1_302

²⁵ Бурков В.Н. Введение в теорию управления организационными системами / В.Н. Бурков, Н.А. Коргин, Д.А. Новиков. – М., 2009.

²⁶ Public Administration Recruiters. // <https://www.haldren.com/industries/public-administration-recruiters/>

shakllantirish va bu borada boshqa kuchli davlatlar bilan sheriklik tamoyilini mustahkamlash usuli²⁷.

XVI. Mentoring usuli – Davlat boshqaruvida “Ustoz-shogird” dilemasi asosida rahbar kadr qo'l ostidagi xodimlarga o'z tajribasini o'ragatishidir²⁸.

XVII. Networking (Networking) usuli – Davlat boshqaruvida va boshqaruv tizimida hamda xususiy sektorlar va jamoatchilik bilan kelishilgan holda faoliyat yo'nalishlari bo'yicha tarmoqlararo aloqalar usuli²⁹.

XVIII. Lizing (Leasing) usuli – Davlat iqtisodiy siyosatida davlat idoralarning aktivlari ijara hamda huquqiy shartnoma asosida xususiy sektorlarga uzatish usuli³⁰.

XIX. Lobbying (Lobbying) usuli – muayyan lobbi guruhlarining manfaatlarini jamoatchilik manfaatlarini bilan konsensuzga kelishishda hamda sohalararo lobbi guruhlarini qo'llab-quvvatlash usuli³¹.

XX. Kontrakting-aut (Contracting-out) usuli – Davlat boshqaruvida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishda va natijadorligini ta'minlashda davlat organlarining muayyan vakolatlari xususiy sektorlarga tegishli shartlar asosida shartnoma shaklida beriladi. Bunda muayyan resurslar, imkoniyatlar va vaziyatlar strategik rejalashtiriladi³².

XXI. Kroudsorsing (Crowdsourcing) usuli – Shaxs, muassasa, tashkilot va nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari o'zining bilimi, tajribasi va tegishli malakasi orqali davlat organlariga innovatsion g'oyalarni va tashabbuslarni ilgari surishini ta'minlash maqsadida davlatning amalga oshiradigan chora-tadbirlari usuli³³.

XXII. Kroudkontekst (Crowd casting) usuli – Kroudsorsingning bir shakli bunda “Jamoatchilik aksiyalari” orqali davlat boshqaruvida muayyan muammolarga jamoatchilik bilan birgalikda barham berish nazarda tutiladi³⁴.

XXIII. Kroudfanding (Crowd fanding) usuli – Ijtimoiy media vositasida jamoatchilik asosida muayyan maqsadlar uchun mablag'larni yig'ish usuli³⁵.

XXIV. Kroudopinion (Crowd opinion) usuli – Davlatda amalga oshirilayotgan islohatlar samaradorligi uchun jamoatchilik fikrini amalga oshirish ya'ni turli so'ovnoma va ekspert tahlili orqali davlat organlari faoliyatida kamchilik va to'siqlarni aniqlash usuli³⁶.

²⁷ Hedging in International Relations. // <https://eair-caucus.org/project/hedging-in-international-relations/>

²⁸ Mentoring Management in Public Administration. //

<https://www.adjuris.ro/revista/articole/An12v3/5.%20Tincuta%20Gudana%20Vrabie%20en.pdf>

²⁹ Lemaire, Robin H, 'Networks and Public Administration' (30 Oct. 2019), in Erin Hannah (ed.), Oxford Research Encyclopedia of Politics (New York, NY, online edn, Oxford Academic, 7 Apr. 2016 -), <https://doi.org/10.1093/acrefore/9780190228637.013.970>, accessed 11 Apr. 2026.

³⁰ What is leasing?. // <https://www.chg-meridian.com/gb-en/resource-centre/blog/what-is-leasing/>

³¹ Lobbying and influence. // <https://www.oecd.org/en/topics/lobbying.html>

³² Maurya D. Contracting out: making it work. Policy Design and Practice, 1(4), 2018. P.281–297. <https://doi.org/10.1080/25741292.2018.1552107>

³³ Shang, Y. Crowdsourcing in Public Management: Current Research and Future Directions. Open Journal of Social Sciences, 12, 2024. P.359-378. <https://doi.org/10.4236/jss.2024.127026>

³⁴ Crowdsourcing: Citizens as coproducers of public services. // <https://onlinelibrary.wiley.com/doi/10.1002/poi3.249>

³⁵ Digital Transformation Collaborative Finance Toolkit – Fact Sheets <https://onlinelibrary.wiley.com/doi/10.1002/poi3.249>

³⁶ Public opinion - definition, characteristics, examples. <https://www.britannica.com/topic/public-opinion>

XV. Kroudpaternship usuli (Crowd paternship)– Davlat ijtimoiy siyosatida jamoatchilik o'rtasida hamkorlikni amalga oshirish, bu fanda “Davlat-xususiy sherikchilik” tushunchasi bilan ham ifodalanadi³⁷.

XVI. Rodmapping (Roadmapping) usuli – davlat boshqaruvida muayyan maqsadlarga erishishga yordam beradigan strategik rejalashtirish texnikasi³⁸.

XVII. Reinjining usuli – murakkab jarayon bo'lib, davlat boshqaruvida ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalarini qayta loyihalash, ishlab chiqish jarayonining strategik dasturiy usulidir³⁹.

XVIII. Trablshuting (Troubleshooting) usuli – davlat boshqaruvida sohalararo kuzatiladigan muammolarni aniqlash, tahlil qilish, tegishli strategiya shakllantirish va uni hal etish jarayonlarini o'z ichiga olgan usuldir⁴⁰.

Natijalar.

Davlat siyosati va boshqaruv texnologiyalari o'zining progression va strategik vektorlariga egaligi bois, ushbu jarayonning modernizatsiyasini dinamikli va o'zgaruvchan hisoblanadi. Dunyo siyosiy tartibotlarining o'zgarishi, siyosiy qadriyatlar va madaniyatlarning o'zgarib borishi bu boradagi aniq bo'lgan pozitsiyalarni mustahkamlaydi.

Zamonaviy globallashuv, urbanizatsiya, investitsiyalar, intellektual resurslar, sayyohlarni jalb qilish uchun hududlar o'rtasida kuchayib borayotgan raqobat sharoitida strategik rejalashtirish davlatning ijtimoiy-iqtisodiy xarakterdagi muammolarni hal qilishda hukumat va jamiyatning sa'y-harakatlarini birlashtirishi mumkin bo'lgan eng munosib vositaga aylandi. Strategik dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish va ularni izchil amalga oshirib borish amaliyoti ko'plab mamlakatlarda uzoq vaqt davomida qo'llanilib kelinmoqda. Zamonaviy davlat boshqaruvida strategik dasturiy hujjatlarning joriy etilishi davlat boshqaruvi samaradorligi va isloh qilish vazifalarini amalga oshirishda joriy etiladi⁴¹. N.Abdulazizovaning “Davlat siyosati va boshqaruvida innovatsion trendlar: global tajriba va O'zbekiston amaliyoti” nomli maqolasida davlat boshqaruvining asosiy zamonaviy konsepsiyalari bayon etilib, “Yangi davlat boshqaruvi” (New Public Management), “Ochiq hukumat” (Open Government), “Raqamli hukumat” (Digital Government), “Koorpartiv boshqaruv (Collaborative Governance)” va “Barqaror rivojlanish boshqaruvi” (Sustainable Governance) konsepsiyalari davlat siyosatidagi zamonaviy strategik tendensiyalarni shakllantiradi⁴². Lindenvud universitetida e'lon qilingan “Zamonaviy boshqaruvning roli: davlat boshqaruvi, siyosatdagi innovatsiyalar va fuqarolarning ishtiroki” maqolada “Samarali va hisobdor hukumatni qurish”, “Davlat xizmatlarini ko'rsatishda samaradorlik”, “Davlat boshqaruvida moslashuvchanlik va innovatsiyalar”, “Hukumat faoliyatida shaffoflik va hisobdorlik”, “Siyosatdagi innovatsiyalar: murakkab muammolarni hal qilish”, “Innovatsion siyosat dizayni orqali murakkab muammolarni hal qilish”, “Siyosatni

³⁷ Wang H., Xiong W, Wu G., Zhu D. Public-private partnership in Public Administration discipline: a literature review. *Public Management Review*, 20(2), 2018. 293-316. <https://doi.org/10.1080/14719037.2017.1313445>

³⁸ What is Roadmapping? Importance, Tools and Steps. // <https://supahub.com/glossary/roadmapping>

³⁹ Reengineering processes in public administrations. //

https://www.academia.edu/143733532/Reengineering_processes_in_public_administrations

⁴⁰ What is Troubleshooting? A Complete Guide. // <https://www.theknowledgeacademy.com/blog/what-is-troubleshooting/>

⁴¹ Yusupov J, Atavullayev M, Akramov J. Amaliy siyosatshunoslik. // O'quv qo'llanma. – T: O'zMU. 2023. 215-b.

⁴² Abdulazizova N. Davlat siyosati va boshqaruvida innovatsion trendlar: global tajriba va O'zbekiston amaliyoti.

Davlat siyosatining yangi tendensiyalari (I-qism). Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent: “Yangi sahifa”, 2026. – 54-b. <https://zenodo.org/records/19203726>

shakllantirishda ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish", "Davlat boshqaruvini prognoz qilish va modellashtirish", "Davlat-xususiy sheriklik va ijtimoiy innovatsiyalar", "Fuqarolar ishtiroki: Ishonch va ishtirokni rivojlantirish", "Fuqarolarning saylov ta'limini va ishtirokini kuchaytirish", "Jamoatchilik bilan muhokamalar o'tkazish", "Davlat boshqaruvini raqamli transformatsiya asosida yaxshilash"⁴³ kabi kategorial tushunchalar zamonaviy davlat boshqaruvining asosiy yo'nalishlaridagi natijalari hisoblanishi qayd etiladi. Monkaso ilmiy tatqiqot markazining "Davlat boshqaruvining o'zgaruvchan manzarasi" nomli maqolasida hukumatni raqamli transformatsiya orqali boshqarish samaradorlik, shaffoflik, qulaylikni oshirishning raqamli yechimi ekanligi qayd etiladi. "Ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish" texnologiyasi (Data-driven policy) esa, bu qarorning aniqlik va strategik imkoniyatlarini oshiradi. Fuqarolarga yo'naltirilgan boshqaruv esa, fuqarolarda siyosiy hokimiyatga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi. Bu borada "Davlat-xususiy sheriklik" konsepsiyasi buning institutsional asosi ekanligi ta'kidlanadi⁴⁴. Davlat siyosati va boshqaruv texnologiyalariga oid ma'lumotlar turli ilmiy-tatqiqot markazlari va muassasalari tomonidan tatqiq etib kelinmoqda.

Muhokamalar.

Zamonaviy siyosatshunoslik sohasining fan sifatidagi diversifikatsiyasida yo'nalishlar klasifikatorlarining progression o'zgarishi davlat siyosati va davlat boshqaruvini texnologiyalarini tatqiq etishda tendensial xarakterga ega bo'la boshladi. Xalqaro ilmiy-tatqiqot institutlari va markazlarining fundamental asosdagi ishlab chiqayotgan konsepsiyalari, nazariyalari, paradigmalari va texnologiyalari ahamiyotga molik bo'lgan jarayon modernizatsiyasini ta'minlashga xizmat qiladi.

Davlat boshqaruvining tizimli va dinamik harakat trayektoriyalari davlat siyosati va boshqaruvini texnologiyalarida barqaror va beqaror holatda bo'lishi mumkin. Bu jarayonning modernizatsiyasi hamda transformatsion ko'lami davlat boshqaruvidagi siyosat subyekti bo'lgan siyosiy institutlar, siyosiy partiyalar, siyosiy elita, siyosiy yetakchilarning qaror qabul qilishdagi tutgan pozitsiyasi hamda ta'siri bilan o'lchanadi. Biroq, siyosat falsafasi va nazariyasidagi fundamental nazariyalarning mazkur amaliy jarayonga mosligini ham inobatga olib tahlil qilinsa, birgina bu elementlar bilan mazkur jarayondagi yo'nalishlar va strategiyalardagi o'zgarishlar miqdorini ifodalab bo'lmaydi⁴⁵. Rus tatqiqotchisi L.Smorgunovning "Davlat boshqaruvida yangi trendlar: yangi davlat boshqaruvidan davlat siyosati boshqaruviga" nomli maqolasida bu boradagi tanqidiy masalalarga quyidagicha yondashadi: "Iqtisodiyot va jamiyatda paydo bo'layotgan inqirozli hodisalarga ma'muriy islohotlarning munosabati ta'sirida davlat boshqaruvining konseptual paradigmasining evolyutsiyasi shakllandi. O'tgan asrning so'nggi o'n yilliklari oxirida davlat boshqaruvini boshqarishning "Neoliberal strategiyasi", ya'ni unga bozor mexanizmlari va tuzilmalarini kiritish ta'sirida ma'muriy o'zgarishlar ro'y berdi. Mafkuraviy jihatdan bu ma'muriy islohotlar "Yangi Davlat Boshqaruvini" ga (New Public Management) asoslangan edi. Biroq, asrning oxiriga kelib, ushbu islohot yo'nalishi va uning mafkurasining muvaffaqiyatsizliklari va paradokslari

⁴³ Role of Modern Governance: Public Administration, Policy Innovation, and Citizen Engagement. // <https://www.lindenwood.edu/blog/role-of-modern-governance-public-administration-policy-innovation-and-citizen-engagement/>

⁴⁴ The Future of Public Administration. // <https://www.mancosa.co.za/blog/the-future-of-public-administration/>

⁴⁵ Mardanov S.Z. Davlat boshqaruvining progressiv dinamikasida davlat siyosati va boshqaruv texnologiyalari modernizatsiyasi qiyosiy tahlili // EJLFAS. №11. 2025. 113-b. <https://cyberleninka.ru/article/n/davlat-boshqaruvining-progressiv-dinamikasida-davlat-siyosati-va-boshqaruv-texnologiyalari-modernizatsiyasi-qiyosiy-tahlili>

yaqqol ko'rinib qoldi. Bu fuqarolar va ularning birlashmalarini ma'muriy jarayonga jalb qilish yo'nalishi bo'yicha ma'muriy tizimni qayta qurishni talab qildi. Gorizonttal boshqaruv mexanizmi "Yangi Davlat Boshqaruvi" kontseptsiyasida o'z ifodasini topdi. Biroq, bu yerda ham "Hukumatsiz boshqaruv"ga e'tibor davlat boshqaruvining oshkoraligiga to'sqinlik qiluvchi omil bo'lib chiqdi. Ikkinchi o'n yillikda yanada tizimli davlat boshqaruvi va uning davlat siyosati bilan aloqasi bilan bog'liq yangi ehtiyojlar paydo bo'la boshladi. "Yagona", "Strategik", "Moslashuvchan" va "Bardoshli" boshqaruv kabi tushunchalar siyosat va boshqaruv o'rtasidagi yangi munosabatni - differentsiatsiyadan birlikka qadar aks ettiradi⁴⁶. Siyosatshunoslik fondida jamiyatning faol qatlami tomonidan ijtimoiy hayotning barcha holat va o'zgarishlari siyosiy talqin qilinib, biroq ramiy nuqtai nazardan to'g'ri baholanmasligi hamda tegishli chora-tadbirlar o'z vaqtida ko'rilmasligi oqibatida ayrim davlatlarda turli beqarorlik va katta inqirozlar kelib chiqayotganini inkor etib bo'lmaydi. Yangi O'zbekistonni barpo etish sharoitida, bir tomondan, jamiyat a'zolarining siyosiy tahlil va talqinlari faollashib borayotgani, ikkinchi tomondan, ushbu tahlil va talqinlarning ommalashtirilayotgani natijasida jamiyatning tobora siyosiy lashuvi, uchinchi tomondan, davlat rahbariyati tomonidan ijtimoiy-siyosiy ehtiyoj va talabalarga inson qadriyatlaridan kelib chiqqan holda oqilona javob berish talab etilyotgani kuzatilmogda⁴⁷. Boshqaruv shaklini belgilovchi mezonlar davlat boshqaruvi xalqlar hayotiga befarq qaraydigan "Mavhum tushuncha" ham, "Siyosiy chizig'i" ham emas, balki hayot tarzi va xalqning jonli tashkilotidir. Xalq o'z hayot tarzini tushunishi, aynan shunday tashkillanishini uddalashi, shu tuzum qonunlarini hurmat qilishi hamda shu tashkilotga ixtiyoriy hissasini qo'shishi zarur⁴⁸. Davlat boshqaruvi va davlat siyosati borasida muhokamaga molik tanqidiy xususiyatlar davlatning sektorlararo, sohalararo hamda tarmoqlararo farqli va o'xshash belgilariga egadir.

Xulosa.

Davlat boshqaruvi siyosatshunoslik fanlari tizimida mustaqil sohadir. Siyosatshunoslik sohasi evolyutsiyasining taraqqiy etishi va transformatsion moslashuvchanligida davlat siyosati va boshqaruvi texnologiyalari alohida soha sifatida o'zining muhim ilmiy va amaliy pozitsiyasiga ega. Davlat siyosati boshqaruv texnologiyalarining rivojlanib borishi va bu borada ilmiy tatqiqot ishlarining dialektik taraqqiyoti mazkur sohada har bir davlatning o'z milliy tajribasini shakllantirishini taqazo etmogda. Bu borada siyosiy tizim, siyosiy resurslar, siyosiy madaniyat, siyosiy legitimlik, davlatning institutsional-huquqiy asoslari, uning qonunchilik bazasi muhim o'ringa egadir. Davlat siyosati va boshqaruv texnologiyalarining siyosatshunoslikning tatqiqot obyekt sifatida:

Birinchidan, davlat siyosatida boshqaruv texnologiyalarini qo'llashning strategik imkoniyatlarini siyosatshunoslik fanlari tizimi bilan integratsiya qilgan holda amalga oshrish faoliyat samaradorligi va natijadorligini ta'minlaydi;

⁴⁶ Smorgunov L. Modern trends in public administration: from new public management to governance of public policy. // Political science (RU). 2022. P.104-105.

https://www.researchgate.net/publication/364496274_MODERN_TRENDS_IN_PUBLIC_ADMINISTRATION_FROM_NEW_PUBLIC_MANAGEMENT_TO_GOVERNANCE_OF_PUBLIC_POLICY

⁴⁷ Sultonov A. Siyosat falsafasida boshqaruv madaniyatini tadqiq etish metodologiyasiga doir. O'zbekistonda politologiyaning yangi bosqichi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent: "Complex Print", 2022. – 171-b.

⁴⁸ Masharipov I.B. Siyosatshunoslik [Darslik] – "Omadbek print number one" MCHJ. Andijon: 2025. – 106-b.

Ikkinchidan, davlat siyosatida siyosatshunoslik sohasining rolini ortib borishi zamonaviy boshqaruv texnologiyalarining shakllanishiga asos bo'lib xizmat qiladi;

Uchinchidan, boshqaruv texnologiyalarini qo'llashda siyosiy jarayon, siyosiy institutlar va siyosiy texnologiyalar kombinatsiyasi asosida amalga oshirish siyosatshunoslik fanlar tizimiga bo'lgan talabning ham ortib borishi uchun sharoit yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Bo'tayev.U.X. Siyostshunoslik [Matn]:darslik/U.X.Bo'tayev-Toshkent: Info Capital Books, 2024.- 14-b.
- 2.Aliyev.B, Hoshimov.T, Yuldashev.O, Politologiya: darslik – B.Aliyev (va boshqalar), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. – T: Adib nashriyoti, 2010. – 8-b.
- 3.Mirzaaxmedov K. Davlat boshqaruvi tizimini demokratlashtirishda siyosiy hokimiyat legitimligini takomillashtirish mexanizmlari. // Monografiya, - T: "Ma'rifat", 2023. 192 b.
- 4.Mardanov S.Z. Davlat boshqaruvining konseptual asoslari va uning davlat siyosatida tutgan roli. // Yangi O'zbekiston Pedagoglari axborotnomasi. № 11, 2025. – 109-b. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17812068>
- 5.Jo'rayev.S. Politologiya: o'quv qo'llanma. – T: TDYI nashriyoti, 2006 45-b.
- 6.Muhitdinova.F.A. Siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixi. Darslik. – T.: TDYI nashriyoti, 2011. – 376 b.
- 7.Odilqoriyev X.T, Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik: darslik. – T: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012-289 b.
- 8.Quranboyev.Q.Q, Mirzaaxmedov.K.M. Siyosatshunoslik: o'quv qo'llanma/ Q.Q.Quranboyev, K.M.Mirzaaxmedov; mas'ul moharrir A.Mo'minov. – T: "Kamalak", 2013.- 276 b.
- 9.Bito'rayev O'. B. Siyosatshunoslikka kirish (o'quv qo'llanma) Toshkent: "Barkamol fayz media", 2017, 344 b.
- 10.Qirg'izboyev M. Siyosatshunoslik: oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik / M.Qirg'izboyev; O'zbekiston Jurnalistika va Ommaviy kommunikatsiyalar universiteti. – Toshkent: "Sharq", 2024 – 504 b.
- 11.Ergashev.I, Abdullayev.B, Xudaynazarov.A, Siyosatshunoslikka kirish: o'quv qo'llanma. – T.: "Ma'rifat", 2025. 332 b.
- 12.Mirzaaxmedov K. Davlat boshqaruvi / O'quv qo'llanma. Toshkent, "Zilol buloq" nashriyoti, 2025. – 384 b.
- 13.Jumayev R, Yovqochev Sh. Siyosiy texnologiyalar: o'quv qo'llanma. – TDSHI, 2018. – 232 b.
- 14.Islomov I.N, Mahmudov SH.A, Teshaboyev A.A. Global siyosiy texnologiyalar. Monografiya. – T: Complex Print, 2023. – 123 b.
- 15.Outsourcing in the Public Sector: a VfM perspective. // <https://www.nerinstitute.net/research/outsourcing-public-sector-vfm-perspective>
- 16.The Role of Auditing in Public Sector Governance. // https://www.ca-ilg.org/sites/main/files/file-attachments/auditing_in_public_sector.pdf?1441835528
- 17.What is outstaffing and the main features. <https://blagoda.ua/en/blog/article/47>
- 18.Давыдов К.В. Публичные услуги: теоретические проблемы правового оформления / К.В. Давыдов // Качество жизни населения в России и ее регионах: коллективная монография / под ред. В. Кущенко, Г.П. Литвинцевой, Л.А. Осьмук. – Новосибирск, 2009. – С. 106.

- 19.Mirzaaxmedov K.M. Davlat xizmati tizimini samarali tashkil etishning zamonaviy modellari. // Ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. №2. 2022. 11-12-b.
- 20.What is brainstorming and how to apply it in your strategies? // <https://www.imd.org/blog/strategy/what-is-brainstorming/>
- 21.Домбровская И.А. Проблемы внедрения инновационных управленческих технологий в системе государственного и муниципального управления // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – 2014. – № 11-2. – С. 232-236
- 22.Coaching and Leadership in the Public Sector. // <https://www.westminsterinsight.com/insights/coaching-and-leadership-in-the-public-sector/>
- 23.Cooperating with fact-checkers, civil society, media and academia. // https://commission.europa.eu/topics/countering-information-manipulation/cooperating-fact-checkers-civil-society-media-and-academia_en
- 24.Public Franchising. // https://link.springer.com/rwe/10.1007/978-1-349-74173-1_302
- 25.Бурков В.Н. Введение в теорию управления организационными системами / В.Н. Бурков, Н.А. Коргин, Д.А. Новиков. – М., 2009.
- 26.Public Administration Recruiters. // <https://www.haldren.com/industries/public-administration-recruiters/>
- 27.Hedging in International Relations. // <https://eair-caucus.org/project/hedging-in-international-relations/>
- 28.Mentoring Management in Public Administration. // <https://www.adjuris.ro/revista/articole/An12v3/5.%20Tincuta%20Gudana%20Vrabie%20en.pdf>
- 28.Lemaire, Robin H, 'Networks and Public Administration' (30 Oct. 2019), in Erin Hannah (ed.), Oxford Research Encyclopedia of Politics (New York, NY, online edn, Oxford Academic, 7 Apr. 2016 -), <https://doi.org/10.1093/acrefore/9780190228637.013.970>, accessed 11 Apr. 2026.
- 29.What is leasing?. // <https://www.chg-meridian.com/gb-en/resource-centre/blog/what-is-leasing/>
- 30.Lobbying and influence. // <https://www.oecd.org/en/topics/lobbying.htm>